

QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



Nogironligi bo'lgan bolalarga nafaqa murojaat qilinganligidan qat'i nazar tayinlanadi

Hukumat qarori bilan 2023 yil 23 martda 119-sonli "Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan ayrim toifadagi shaxslarga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida" nizom tasdiqlandi.

Nizom bilan quyidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga nafaqalarni tayinlash tartiblari belgilandi:

nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarga;

o'zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolaning parvarishi bilan band bo'lgan qonuniy vakilga;

davlat pensiyasini tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo'Imagan I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga;

davlat pensiyasini olish huquqiga ega bo'Imagan vafot etgan shaxsning qaramog'idagi oilaning mehnatga layoqatsiz a'zolariga;

davlat pensiyasini tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo'Imagan keksa yoshdagi shaxslar hamda bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandi bor (bo'lgan) onalarga.

Shunga ko'ra, quyidagi nafaqalar tayinlanadi:

nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarga nogironlik nafaqasi;

parvarishlash nafaqasi;

nogironlik nafaqasi;

boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi;

yoshga doir nafaqa.

Nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarga nafaqa hamda parvarishlash nafaqasi Pensiya jamg'armasi tomonidan "proaktiv shakl"da tayinlanadi.

Nogironlik, boquvchisini yo'qotganlik va yoshga doir nafaqalar tayinlanishi uchun davlat xizmatlari markazlari yoki YaIDXP (my.gov.uz) orqali murojaat qilinadi.

DXM ma'lumot olingandan so'ng 5 daqiqa ichida:

nafaqa tayinlangan taqdirda, nafaqani qachon va qayerdan olish to'g'risida murojaat qiluvchini xabardor qiladi.

Nafaqalar nafaqa oluvchining xohishiga ko'ra nafaqani yetkazib berish (topshirish) vakolati yuklangan tashkilot yoki fuqarolarning depozit hisobvaraqlariga pul o'tkazish yo'lli bilan bank filiali orqali to'lanadi.

Nafaqalar har oyda belgilangan muddatlarda, biroq joriy to'lov oyidan kechikmay to'lanadi.

Nafaqa oluvchi O'zbekiston hududida doimiy yashash uchun boshqa tuman (shahar)ga ko'chganda, nafaqani to'lash yangi yashash joyi bo'yicha davom ettiriladi. *Bunday holatda nafaqa to'lash avvalgi yashash joyi bo'yicha nafaqa to'lash to'xtatilgan vaqtidan boshlab davom ettiriladi.*

qo'llash amaliyotini o'rganish bo'linmasi bosh maslahatchisi

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-04-07 18:16:14